Qosimova Fazilat, Kalandarov Ravshan	
Korporativ strategiyani ishlab chiqish bosqichlarining tahlili	819
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Abduvasiyeva Marjona Anvarovna	



Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarning o'rni.....	823
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Nuridinov Bexruz Akbar o'g'li	



MAMLAKATIMIZ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH BO'YICHA O'TKAZILAYOTGAN ISLOHOTLARNING O'RNI



Ayubov Ilyos Ilxomovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.f.d., PhD, dotsent

Nuridinov Bexruz Akbar o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Xususan, "aqlli turizm klasterlari", maxsus investitsion hududlar, soliq va bojxona imtiyozlari, investor vizasi, davlat-xususiy sheriklik va turizm fondlari kabi samarali mexanizmlar taklif etilgan. Shuningdek, ekoturizm, agro-turizm va etno-turizm rivojlantirish, turistik xizmatlarni raqamlashtirish va xorijiy sarmoyadorlar bilan bevosita hamkorlikni kengaytirish bo'yicha innovatsion tashabbuslar ilgari surilgan. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonni xalqaro turizm markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Turizm, investitsiyalari, aqlli turizm klasterlari, investitsion hududlar, soliq imtiyozlari, investor vizasi, ekoturizm, agro-turizm, etno-turizm, davlat-xususiy sheriklik, raqamli turizm, O'zbekiston xalqaro turizm markazi.

Abstract: This article analyzes modern approaches to improving investment attraction in the tourism sector in Uzbekistan. In particular, effective mechanisms such as "smart tourism clusters", special investment zones, tax and customs privileges, investor visa, public-private partnerships and tourism funds are proposed. Also, innovative initiatives are put forward to develop ecotourism, agro-tourism and ethno-tourism, digitize tourist services and expand direct cooperation with foreign investors. These measures will serve to transform Uzbekistan into an international tourism center.

Key words: Tourism, investments, smart tourism clusters, investment zones, tax privileges, investor visa, ecotourism, agro-tourism, ethno-tourism, public-private partnerships, digital tourism, International Tourism Center of Uzbekistan.

Аннотация: В статье анализируются современные подходы к повышению инвестиционной привлекательности сферы туризма в Узбекистане. В частности, предложены такие эффективные механизмы, как «умные туристические кластеры», особые инвестиционные зоны, налоговые и таможенные льготы, инвестиционные визы, государственно-частное партнерство, туристические фонды. Также были выдвинуты инновационные инициативы по развитию экотуризма, агротуризма и этнотуризма, цифровизации туристических услуг и расширению прямого сотрудничества с иностранными инвесторами. Эти меры будут способствовать превращению Узбекистана в международный туристический центр.

Ключевые слова: Туризм, инвестиции, кластеры интеллектуального туризма, инвестиционные зоны, налоговые льготы, инвесторская виза, экотуризм, агротуризм, этнотуризм, государственно-частное партнерство, цифровой туризм, Международный туристический центр Узбекистана.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida turizm sohasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy dunyoda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda mamlakatning ijobiy imijini shakllantirishda turizm



tarmog'ining roli beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekiston Respublikasi uchun turizm sohasi strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizning boy madaniy merosi, betakror tabiiy go'zalliklari, noyob tarixiy obidalar va xalqimizning azaliy mehmondo'stlik an'analari O'zbekistonda turizm salohiyatining yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. So'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan qarorlar, davlat dasturlari va qonunchilikdagi o'zgarishlar zahirida xorijiy hamda mahalliy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadi mujassam.

Turizm sohasining rivoji, avvalo, zamonaviy infratuzilmani yaratish, xizmatlar sifatini oshirish, mehmonxona, transport va logistika tizimlarini kengaytirish kabi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar bevosita investitsiyalarni jalb etish orqali amalga oshiriladi. Investitsiyalar evaziga turizm sohasida innovatsion loyihalarni joriy etish, hududiy turizm zonalarini rivojlantirish, ekologik va agro-turizm kabi yangi yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyati yuzaga keladi.

Shu bilan birga, islohotlarning asosiy maqsadi – turizmni mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirishdir. Bu orqali yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, eksport tushumlarini ko'paytirish hamda aholi bandligini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, investitsiyalarni jalb etishdagi amaliy natijalar, mavjud muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali investitsiya siyosatini olib borish orqali milliy turizm sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari ham yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida maxsus investitsion hududlar, soliq va bojxona imtiyozlari, "investor vizasi", davlat-xususiy sheriklik va turizm fondlari kabi samarali mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) orqali investorlar uchun Soliq kodeksining 68-bobida belgilangan tartibda soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilmoqda. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan korxonalar uchun ham Soliq kodeksining 472-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari amal qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan "investor vizasi" instituti xorijiy sarmoyadorlarning mamlakat hududida erkin harakatlanishini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunning 34-moddasida esa davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishning huquqiy tartibi belgilab berilgan (manba: lex.uz). Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va moliyalashtirishda turizm fondlari imkoniyatlaridan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-sonli¹ Farmonida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023-yil uchun Davlat byudjetidan mahalliy aviaqatnov yo'nalishlarini subsidiyalash maqsadida qo'shimcha 30 milliard so'm ajratishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. Qarorda reyslarni ularning bandligidan kelib chiqib subsidiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni moliyalashtirish uchun sarflangan mablag'larni kelgusi yilgi davlat byudjeti parametrlarida aks ettirgan holda 1-mayga qadar qoplab berish belgilangan².

Akademik manbalarda ham turizm va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil etilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar R. Zaynalov, Z. Erkaeva, L. N. Xalikova kabi mualliflarning ilmiy maqolalari va monografiyalarida turizm sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va valyuta tushumlarini ko'paytirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, investitsiyalar ishtirokisiz turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi turistik obyektlarni barpo etish va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyati mavjud emas³.

Akademik manbalarda ham turizm va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Jumladan, iqtisodchi olimlar R. Zaynalov, Z. Erkaeva, L. N. Xalikova kabi mualliflarning ilmiy maqolalari va monografiyalarida turizm sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ish o'rinlari yaratish va valyuta tushumlarini ko'paytirish omili sifatida talqin etiladi. Ularning ta'kidlashicha, investitsiyalarsiz turizm infratuzilmasining modernizatsiyasi, yangi turistik obyektlar qurilishi va mavjud resurslarning samarali ishlatilishi imkonsiz bo'lar edi.

Xalqaro tajriba ham O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jahon banki, BMT Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) kabi xalqaro

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://www.lex.uz>

3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi <https://www.imv.uz>



moliyaviy va ekspert tuzilmalarining hisobotlarida O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy baholanmoqda. Jumladan, UNWTO tomonidan tayyorlangan "Tourism for Sustainable Development" hisobotida O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng istiqbolli sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Unda mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida xorijiy sayyohlar oqimi ortib borayotgani va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratilgani alohida ta'kidlangan⁴.

Mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda (masalan, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar", "Taraqqiyot strategiyasi" kabi) turizm sohasidagi investitsion muhit, mavjud muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilingan. Ularda byurokratik to'siqlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va mahalliy aholini jalb etish bo'yicha qator takliflar bildirilgan.

Bundan tashqari, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti olimlari – iqtisod fanlari doktori M. Muhammedov, o'qituvchi N. Normurodov va dotsent Y. Urumbayevalarning ilmiy ishlari O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hududiy infratuzilmaning roli, xususi sektor ishtiroki hamda xorijiy investorlar uchun yaratilgan kafolatlar va xavfsizlik muhitining ahamiyatiga bag'ishlangan.

Shuningdek, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Turizm qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan statistik axborotlar va tahliliy sharhlar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularda investitsiyalarning yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti, istiqbolli loyihalar hamda turistik salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun olib borilayotgan ishlar yoritib boriladi.

Yuqoridagi adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojida investitsiyalarni jalb etish strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar chuqur ilmiy va amaliy asosga ega. Mazkur adabiyotlarda mavjud yutuqlar, mavjud to'siqlar hamda istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan bo'lib, ular hozirgi davlat siyosatining nazariy va amaliy poydevorini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola ilmiy-tahliliy yondashuv asosida tayyorlandi. Unda turizm sohasi va investitsiya jarayonlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda tegishli ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan turizmga oid islohotlar o'rganilib, ularning investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyati amaliy misollar asosida yoritildi.

Tahliliy ishlarda qiyosiy tahlil (taqqoslash), induktiv va deduktiv mulohazalarga asoslangan umimlashtirish, mantiqiy tahlil va xulosa chiqarish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlariga oid takliflarni ishlab chiqishda kompleks yondashuv asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilning yanvar–sentyabr oylarida O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni 5,7 million nafardan oshdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 825,8 ming nafarga yoki 16,8 foizga ko'pdir. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, aynan shu davrda O'zbekistonga eng ko'p sayyohlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hududlaridan kelgan bo'lib, har ikki davlatdan 1,6 million nafardan ortiq fuqaro tashrif buyurgan.

Mazkur statistik ma'lumotlar mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar – jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, viza rejimini soddalashtirish, turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish va hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali turizm sohasida sezilarli yuksalish yuz berganini ko'rsatadi. 2024-yilning birinchi to'qqiz oyida sayyohlar oqimining 16,8 foizga o'sgani bu boradagi yirik siljishlarning yaqqol dalilidir.


Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining asosiy qismi quyidagi mamlakatlarga to'g'ri kelgan:

- Tojikiston – 1,6 mln kishi;
- Qirg'iz Respublikasi – 1,6 mln kishi;
- Qozog'iston – 1,1 mln kishi;
- Rossiya – 609,7 ming kishi.

Ushbu raqamlar mintaqaviy hamkorlik siyosati, tarixiy va madaniy aloqalarning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, uzoq xorijiy davlatlar – jumladan, Turkiya, Xitoy, Hindiston va Janubiy Koreya kabi mamlakatlardan ham yuz minglab sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurgani, mamlakatning xalqaro turizm maydonidagi nufuzini tobora mustahkamlab borayotganini anglatadi.

Yuqoridagi raqamlar O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning muhim yo'nalishiga aylanib borayotganini, bu esa bevosita investitsion jozibadorlik va xizmatlar sifatining ortib borishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatmoqda (1-rasm).

4 BMT Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) statistik hisobotlari <https://www.unwto.org>.



1-rasm. 2024-yil yanvar–sentyabr oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar kesimidagi taqsimoti (mln nafarda)⁵.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar–sentyabr oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni mamlakatlar kesimida quyidagicha taqsimlangan:

- Tojikiston – 1,6 mln nafar;
- Qirg'iz Respublikasi – 1,6 mln nafar;
- Qozog'iston – 1,1 mln nafar;
- Rossiya – 609,7 ming nafar;
- Turkmaniston – 120,4 ming nafar;
- Turkiya – 84,3 ming nafar;
- Xitoy – 50,4 ming nafar;
- Hindiston – 48,6 ming nafar;
- Janubiy Koreya – 32,6 ming nafar;
- Italiya – 30,3 ming nafar;
- Boshqa davlatlar – 311,9 ming nafar⁶.

Mazkur yutuqlarga erishishda xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay imtiyozlar, turizm sohasidagi qonunchilikning liberallasuvi, erkin turistik zonalarining tashkil etilishi hamda infratuzilma obyektlarining keng ko'lamda barpo etilishi turizm sanoatining jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xususan, mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirish, yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash, tarixiy obidalarni restavratsiya qilishga yo'naltirilgan sarmoyalar turistlarga yanada qulay va xavfsiz muhit yaratilishiga olib kelmoqda. Ushbu natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarda o'z ifodasini topgan.

Bu esa hukumat siyosatining turizmni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirishga qaratilganini yaqqol tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan izchil islohotlar va xorijiy investitsiyalarning keng miqyosda jalb qilinishi nafaqat yaqin va uzoq xorijdan turistlar oqimini oshirmoqda, balki mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, milliy madaniy merosni jahon hamjamiyatiga tanitish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini ham kengaytirmoqda⁷.

⁵ Manba: Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika agentligi <https://www.stat.uz> saytidan olindi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika agentligi <https://www.stat.uz>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi <https://www.invest.gov.uz>.



XULOSA VA TAKLIFLAR

“Aqlli turizm klasterlari” – bu turizm infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalar, innovatsion xizmatlar va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus hududlardir. Bunday klasterlar integratsiyalashgan infratuzilmaga ega bo'lib, mehmonxonalar, transport tarmoqlari, gastronomik zonalar va diqqatga sazovor joylar yagona tizim sifatida boshqariladi.

Shuningdek, raqamlashtirish va LOT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalangan holda sayyohlar uchun mobil ilovalar, virtual gidlar va aqlli to'lov tizimlari joriy etiladi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yashil energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz turizm amaliyotlarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish orqali klaster doirasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

Shu bilan birga, xorijiy va mahalliy investorlar uchun maxsus soliq va investitsiya imtiyozlarini taqdim etish orqali ularga qulay muhit yaratish zarur. Masalan, O'zbekistonda Samarqand yoki Xiva atrofida shunday klasterlarni shakllantirish orqali zamonaviy mehmonxonalar, restoranlar, sayyohlik markazlari, tarixiy yodgorliklar va milliy hunarmandchilik markazlarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish mumkin. Bu yondashuv turistlarga qulay va innovatsion xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashi, investorlar uchun esa jozibador imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar maqsadga muvofiqdir:

1. Raqamli investitsiya platformasini yaratish – bu orqali investorlar mavjud loyihalar haqida to'liq ma'lumot olishi, hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishi va ishtirok etish jarayonlarini soddalashtirishi mumkin bo'ladi.

2. Yashil energiya loyihalarini rag'batlantirish – turizm obyektlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish uchun maxsus grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini joriy etish tavsiya etiladi.

3. Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish dasturlarini kuchaytirish – turizm loyihalarida aholi ishtirokini ta'minlash, ularning mahsulot va xizmatlarini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

4. Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash – turizm yo'nalishida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqayotgan startaplarni uchun inkubatsiya markazlarini tashkil etish va ularga moliyaviy hamda maslahat yordamini ko'rsatish zarur.

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy turizm tashkilotlari va investorlar bilan hamkorlik memorandumini va kelishuvlar imzolashini orqali investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or tajribalarni O'zbekistonga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu takliflar O'zbekistonning turizm sohasiga investitsiyalarni yanada keng jalb etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Turizm sektoriga sarmoya kiritish orqali mamlakatni xalqaro sayyohlik markaziga aylantirish imkoniyati mavjud. Buning uchun:

- infratuzilmani modernizatsiya qilish,
- ekologik va innovatsion turizm yo'nalishlarini kengaytirish,
- xizmatlar sifatini oshirish,
- xorijiy sayyohlarni jalb etishga qaratilgan marketing strategiyalarini kuchaytirish
- zaruriy shartlar hisoblanadi.

Shuningdek, davlat tomonidan soliq va bojxona imtiyozlari, “investor vizasi” instituti, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining takomillashtirilishi turizm tarmog'ining jadal rivojlanishiga zamin yaratadi. Xalqaro brendlar bilan strategik hamkorlik, raqamli marketing vositalaridan foydalanish, milliy turizm brendini jahon miqyosida targ'ib qilish orqali O'zbekiston global turizm xaritasida munosib o'rin egallashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir investitsiya mamlakat iqtisodiy o'sishini tezlashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va milliy boylikning oshishiga xizmat qiladi. Barqaror turizmni rivojlantirish orqali ekologik va ijtimoiy jihatlar ham inobatga olingan holda O'zbekistonni xalqaro miqyosda jozibador va innovatsion turistik yo'nalishga aylantirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova Z., Erkaeva Sh. (2022). Turizm O'zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim omilidir. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarda xalqaro trend jurnali, 6(3), 1074–1078.
2. Muhammedov M. M., Zaynalov J. R., Normurodov U. N., Ayubov I. I., Halikov Y. M. va boshqalar. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – Samarqand: «STEP-SEL» MCHJ nashriyoti, 2022. – 520 b.
3. Xalikova L. N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Samarqand: «STEP-SEL» MCHJ nashriyoti, 2024. – 450 b.
4. Urumbayeva Yu. P. Makroiqtisodiyot. Darslik. – Samarqand: «STEP-SEL» MCHJ nashriyoti, 2024. – 356 b.
5. Shakarov A. B., Ulashev X. A. Makroiqtisodiyot: Darslik. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti, 2024. – 334 b.
6. Xalikova L. N., Ayubov I. I., Shodmonova Z. U., Normurodov U. N. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand: «STEP-SEL» MCHJ nashriyoti, 2024. – 308 b.
7. Xalikova L. N., Kamilova N. A., Ayubov I. I., Shodmonova Z. U. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: «STEP-SEL» MCHJ nashriyoti, 2023. – 167 b.



8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi – <https://www.stat.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – <https://www.lex.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi – <https://uzbektourism.uz>
11. O'zbekistondagi eng faol onlayn nashrlardan biri – <https://kun.uz>
12. O'zbekiston Respublikasining bepul onlayn ensiklopediyasi – <https://uz.wikipedia.org>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi
14. Soliq kodeksining 472-moddasi
15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritganligi to'g'risida
16. BMT Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) statistik hisobotlari – <https://www.unwto.org>
17. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi – <https://www.invest.gov.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
